

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

UBAYDULLAYEV KOMILJON TURSUNBOYEVICH

**ZAYTUN VA ZA'FARON O'SIMLIGI ASOSIDA SHIFOBAXSH
OZIQ-OVQAT QO'SHILMALARI OLISH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41– Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Ubaydullayev Komiljon Tursunboyevich

Zaytun va za‘faron o‘simligi asosida shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmalari olish va ularni
sinflash 3

Убайдуллаев Комилжон Турсунбоевич

Получение и классификация лекарственных пищевых добавок на основе растений
оливы и шафрана 21

Ubaydullayev Komiljon Tursunboyevich

Preparation and classification of medicinal food supplements based on olive and saffron
plants 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

UBAYDULLAYEV KOMILJON TURSUNBOYEVICH

**ZAYTUN VA ZA'FARON O'SIMLIGI ASOSIDA SHIFOBAXSH
OZIQ-OVQAT QO'SHILMALARI OLISH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41– Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

UO*K 547+543:615.07

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/K572 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasida (www.adu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.zivonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asqarov Ibrohim Rahmonovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Isayev Yusufjon Tojimatovich
kimyo fanlari doktori, professor

Dexqonov Raxmatilla Sultonovich
kimyo fanlari nozodi, dotsent


Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "07" 09 soat 10^o dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100 Andijon sh., Universitet ko'cha. 129. Tel.: (99874)223 88 30, faks: (99874) 223 84 33

Dissertatsiyasi bilan Andijon davlat universiteti Axborot-rasurs markazida tanishishi mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99874) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33) e-mail: agsu_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "24" 08 kuni tarqatildi.
(2024 yil 24.08 dagi № 39 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.X. Abdulloyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi o'rinbosari, k.f.d., professor

M.M. Mo'minjonov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent

M.M. Xojimatov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy semmar
raisi, k.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyoda dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash, ular asosida inson organizmi uchun foydali bo‘lgan, tabiiy, bezarar oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqish, ularning foydali xususiyatlarini aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada, turli vegetatsion davrlardagi dorivor o‘simliklarning qismlari asosida sintetik dori vositalariga yordamchi bo‘ladigan, tarkibida vitaminlar, flavonoidlar kabi biologik faol birikmalar, makro- va mikroelementlar saqlagan tabiiy, zararsiz va ekologik toza, turli yallig‘lanish kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqish hamda xalq tabobatida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yallig‘lanish va qandli diabet kasalligini oldini olish hamda davolash xususiyatiga ega bo‘lgan dorivor giyohlardan ajratib olingan tabiiy biologik faol birikmalardan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalari yaratish yo‘nalishida qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, yallig‘lanish va qandli diabet kasalligini davolovchi yoki uni oldini oluvchi dorivor o‘simliklar asosida ba‘zi sintetik vositalarning o‘rnini bosuvchi biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababdan, tarkibida yallig‘lanishga ijobiy ta‘sir etuvchi, qondagi qand miqdorini normallashtiruvchi tabiiy birikmalar saqlagan zaytun moyi va za‘faron o‘simligi asosida, yallig‘lanish va qandli diabet kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan oziq-ovqat qo‘shilmalari yaratish, ularning kimyoviy tarkibi va tuzilishini aniqlash, hamda ularga TIF TN bo‘yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda inson organizmi immunitetini oshirish bilan birga ko‘pgina kasalliklarni oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq –ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish” bo‘yicha amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, zaytun va za‘faron asosida tarkibida yallig‘lanish va qandli diabet kasalligini oldini oluvchi birikmalar saqlagan, organizm immunitetini ko‘taruvchi, zararsiz, tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini yaratish, shuningdek, ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalari o‘rganish hamda uyg‘unlashgan tizim qoidalari bo‘yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son «2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, shuningdek, PF-4668-son “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi hamda 2018 yil 12 oktyabrdagi PQ-3968 - son «O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shifobaxsh giyohlar tarkibini kimyoviy jihatdan tahlil qilish va ular tarkibida uchraydigan biologik faol moddalarni tadqiq qilish, shu jumladan yallig'lanish va qandli diabetga qarshi faollik xossalari ustida ko'plab olimlar ish olib borganlar.

Shu jumladan, AQSH da D.J.Newman, G.M.Cragg, Yevropa davlatlarida masalan, nemis olimi A.Helmstadter, polyak olimi M.Przeorlar tomonidan hayvonot va dorivor o'simliklar asosida yallig'lanishga qarshi va qondagi qand miqdorini kamaytiruvchi yangi tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. MDH davlatlarida ushbu yo'nalish bo'yicha E.B.Arushanyan, O.N.Dimbrilova, L.A.Lapinina, A.A.Spasovlar ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lsalar, yurtimiz olimlaridan kimyo fanlari doktori, professor I.R.Asqarov bilan birga kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktorlari (PhD) G.N.Madraximov, N.T.Yo'lchiyeva, U.Sh.Xusanov va Z.O.Mirzayevalar tomonidan ko'plab samarali ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va hozirgi kunda ham muvofaqqiyatli davom ettirilmoqda.

Hozirgi kunda zaytun (*Olea europaea*) moyi va za'faron (*Crocus sativus* L.) gultumshuqchalaridan oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqilib, tibbiyot amaliyotida, jumladan, yallig'lanishga qarshi hamda qandli diabetga chalingan bemorlarda qondagi qand miqdorini pasaytiruvchi vosita sifatida foydalanilmagan va ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishi zaytun va za'faron o'simliklari asosida tayyorlangan oziq-ovqat qo'shilmalarini turli ko'rinishdagi yallig'lanish bilan bog'liq kasalliklarni davolash hamda qandli diabetda qondagi qand miqdorini kamaytiruvchi vosita sifatida foydalanish kabi muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Xalq xo'jaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Zaytun (*Olea europaea* L.) moyi va Za'faron (*Crocus sativus* L.) gultumshuqchalari asosida yangi shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmalari olish, ularning tarkibini kimyoviy tarkibi va biologik faolliklarini aniqlash hamda TIF TN bo'yicha sinflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Za'farongultumshuqchalari tarkibidagi makro – va mikroelementlar miqdorini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash;

Za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi ayrim flavonoidlar miqdorini YSSX yordamida aniqlash;

Za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi β -karotinlar jamlanmasi miqdorini spektrofotometrik usul yordamida aniqlash;

Za'faron gultumshuqchalari va zig'ir urug'laridan tayyorlangan na'munalarning antioksidant faolligini aniqlash;

Zaytun moyi, za'faron gultumshuqchalari va zig'ir urug'i hamda moyi asosida yangi shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish;

Ishlab chiqilgan oziq-ovqat qo'shilmalarining antiradikal faolligi, yallig'lanishga qarshi hamda qondagi qand miqdorini kamaytirish xususiyatlarini *in vitro* va *in vivo* sharoitlarda aniqlash;

Yaratilgan oziq-ovqat qo'shilmalari uchun TIF TN bo'yicha xalqaro Tovar kodlari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida zaytun moyi, za'faron gultumshuqchalari va zig'ir urug'i hamda moyi, ular tarkibidagi biologik faol birikmalar olingan.

Tadqiqotning predmetini zaytun (*Olea europaea*) moyi, za'faron (*Crocus sativus* L.) gultumshuqchalari va zig'ir (*Linum usitatissimum* L) urug'i hamda moyi asosida biologik faol birikmalar saqllovchi, yangi oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish va ularni kimyoviy tarkibi asosida sinflash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida kimyoviy tahlil, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX), induktiv bog'langan plazmali optik emission spektrofotometriya va Ultrabinafsha spektroskopiya analiz usullaridan, hamda o'simlik xom – ashyolari va olingan yangi oziq-ovqat qo'shilmalarining biologik faolliklarini aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

induktiv bog'langan plazmali emission spektrometriya usulida Surxondaryo viloyatida yetishtirilgan za'faron o'simligining gultumshuqchalari tarkibidagi 29 ta kimyoviy elementlar aniqlanganda, ulardan 15 makro- va mikroelementlarning miqdori boshqalarga nisbatan yuqori ekanligi isbotlangan;

Za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi β -karotin miqdori spektrofotometrik usulda, ayrim flavonoidlar miqdori esa yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodi yordamida aniqlangan;

in vitro sharoitida za'faron gultumshuqchalari va zig'ir urug'ining turli nisbatlardagi aralashmalaridan tayyorlangan na'munalarning antioksidant faolliklari gliklazidga nisbatan yuqori ekanligi isbotlangan;

“ASUK” oziq-ovqat qo'shilmasining antiradikal xususiyati mavjudligi *in vitro* sharoitida aniqlandi, yallig'lanishga qarshi faolligi esa *in vivo* sharoitida “Karragenin shishi” va “Paxta granulyomasi” kabi usullarda tekshirilganda uning ushbu xossalari nazoratga nisbatan 74,4 va 37,8% ga yuqori ekanligi isbotlangan;

“ASQAND” oziq-ovqat qo'shilmasining antiradikallik, gipoksiya sharoitida kislorod iste'moliga ta'siri, peroksidli oksidlanish sharoitiga ta'siri, qandli diabetga qarshi ta'siri yuqori ekanligi *in vitro* va *in vivo* sharoitlarida aniqlangan;

“ASUK” va “ASQAND” oziq-ovqat qo'shilmalari uchun kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Zaytun va zig'ir moylari aralashmasidan "ASUK" nomli shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasi yaratilgan;

Za'faron gultumshuqchalari va zig'ir urug'i aralashmasidan "ASQAND" nomli shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasi yaratilgan;

Za'faron va zig'ir urug'idan tayyorlangan qandli diabet kasalligida qondagi qand miqdorini pasaytirish xususiyatiga ega bo'lgan oziq-ovqat qo'shilmasi, shuningdek, zaytun moyi va zig'ir moyidan tayyorlangan yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan oziq-ovqat qo'shilmalariga TIF TN bo'yicha yangi xalqaro Tovar kodlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi oziq-ovqat qo'shilmalari yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, optik emission spektrometriya hamda spektrofotometriya usullari asosida tarkibi o'rganilgan va ularning biologik faolliklari, ilmiy tadqiqot ishlari natijalari matematik-statistik tahlil qilinganligi, olingan natijalarning ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, amaliy natijalarining vakolatli davlat organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zaytun va zig'ir moylari asosida olingan "ASUK" oziq-ovqat qo'shilmasi hamda za'faron va zig'ir asosida olingan "ASQAND" oziq-ovqat qo'shilmasi kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari zamonaviy usullar yordamida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zaytun moyi va za'faron gultumshuqchalari asosida yallig'lanishga va qandli diabetga qarshi faollikka ega tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari yaratilganligi, ularni shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasi sifatida xalq tabobati amaliyotiga tavsiya qilingani, hamda ularga kimyovoy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha yangi Tovar kodlari ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tarkibida yallig'lanishga va qandli diabetga qarshi faollikka ega bo'lgan biologik faol moddalar saqlovchi ayrim oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish va ularni sinflash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Zaytun moyi asosida tayyorlangan tabiiy yallig'lanishga qarshi faollikka ega "ASUK" nomli yangi oziq-ovqat qo'shilmasi va za'faron gultumshuqchalari asosida tayyorlangan qandli diabetga qarshi faollikka ega "ASQAND" nomli yangi oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqarish uchun resept, texnologik yo'riqnomalar (TY 304553567-02:2023, TY 304553567-03:2023) ishlab chiqilgan va ularga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Sanitariya-epidemiologiya xulosalar berilgan. (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 30.10.2023 yil 30 oktyabrdagi №386142-son va 2023 yil 7 avgustdagi № 386123-son ma'lumotnomalari) Natijada, zaytun va za'faron o'simliklari asosida qandli diabet va yallig'lanishga qarshi oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqarish imkonini bergan.

"ASUK" va "ASQAND" oziq-ovqat qo'shilmalari tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha sinflanib, ularga "tarkibida krosetin, krosin, beta-karotin, safranal saqlovchi dorivor o'simliklar yoki ularning ayrim qismlaridan

tayyorlangan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari" uchun 2106909806 kod raqami ishlab chiqilgan va bojxona amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2024 yil 20-iyundagi №17/05-24-1187 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, shu kabi oziq-ovqat qo'shilmalarini eksport va impor qilishda ulardan undiriladigan boj to'lovlarini nazorat qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 5 ta halqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 8 ta ilmiy maqola respublika miqyosidagi va 2 ta ilmiy maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, 32 ta jadval, 25 ta rasm, 2 ta sxema va 6 ta ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi –108 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zaruriyati ifoda etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmetlari ko'rib chiqilgan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ayrim shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmalarining xalq tabobatidagi o'rni va kimyoviy tarkibi” (adabiyotlar sharhi)** deb nomlangan birinchi bobida “Xalq tabobati” fanining rivojlanishi va turli hastaliklarni tabiiy vositalar yordamida davolashdagi ahamiyati, “Tovarlar kimyosi” fanining vujudga kelishi va bugungi kundagi iqtisodiy hamda ijtimoiy zarurati, zaytun va za'faron o'simliklarining kimyoviy tarkibi, shifobaxsh xususiyatlari, yallig'lanish bilan bog'liq kasalliklar, yurak qon-tomir kasalliklari qandli diabet, buyrak toshi, Parkinsonizm kabi kasalliklarni xalq tabobatida davolash haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tadqiqot ob'yektlarida olib borilgan tajribalar natijalari va ularning muhokamasi”** deb nomlangan bo'lib, unda za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi mikro va makro-elementlar, β -karotin, ayrim flavonoidlar miqdorini miqdorini turli usullar yordamida aniqlash, za'faron va zaytun asosida tayyorlangan na'munalarning antioksidant faolligini aniqlash, shuningdek, “ASQAND” va “ASUK” oziq-ovqat qo'shilmalarining biologik hususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bir qancha *in vitro* va *in vivo* tajribalar natijalari muhokama qilingan.

O'zbekiston Respublikasining Surxondaryo viloyati hududida yetishtirilgan za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi makro - va mikroelementlar miqdorini optik emission spektrometriya usulida amalga oshirildi.

Tahlil davomida 29 ta element tekshirildi (1-jadval) va za'faron gultumshuqchalari tarkibida ulardan 15 tasi turli miqdorlarda mavjud ekani aniqlandi. Quyidagi jadvalda analiz natijasida olingan ma'lumotlar keltirilgan:

1-jadval.

Za'faron gultumshuqchalari element tahlili natijalari

T/r	Element nomi	Belgisi	Miqdori (mg/100 g)	T/r	Element nomi	Belgisi	Miqdori (mg/100 g)
1	Fosfor	P	432,2±0,72	9	Alyuminiy	Al	21,23±0,22
2	Kaliy	K	375,4±0,54	10	Natriy	Na	20,15±0,28
3	Magniy	Mg	160,3±0,34	11	Marganes	Mn	2,38±0,12
4	Kalsiy	Ca	111,5±0,28	12	Stronsiy	Sr	1,225±0,24
5	Rux	Zn	74,325±0,46	13	Mis	Cu	1,025±0,18
6	Oltingugurt	S	35,87±0,38	14	Bor	B	0,675±0,09
7	Tellur	Te	28,05±0,48	15	Litiy	Li	0,139±0,06
8	Temir	Fe	26,04±0,36				

Surma, molibden, selen, qalay, bariy, xrom, mishyak, qo'rgoshin, kadmiy, vanadiy, kumush, simob, kobalt hamda nikel elementlari na'muna tarkibida topilmadi.

Mamlakatimizda yetishtirilgan za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi rux miqdori Eronda yetishtirilgan za'faron gultumshuqchalaridagiga nisbatan 71,283 mg/100g ga, natriyniki esa 0,27 mg/100g ga ortiq ekani, shuningdek organizmda insulin ishlab chiqarilishi, uning faolligini oshirish hamda qandli diabet asoratlarini kamaytirishda muhim bo'lgan marganes (2,38 mg/100g), mis (1,025 mg/100g) kabi elementlar ham aniqlangani alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston hududiga moslashtirilgan za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi β-karotin miqdorini aniqlash uchun spektrofotometriya usuli qo'llanildi.

2-jadvalda ifodalangan natijalarga asosan, za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi β-karotin miqdorini aniqlash uchun eng maqbul sharoit sifatida erituvchi geksan, namuna va erituvchi nisbati 1:5, namunaning maydalanganlik darajasi 1 mm, ekstraksiya vaqti esa 90 minut ekanini anglash mumkin.

2-jadval.

Za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi β – karotinning miqdoriy tahlili natijalari

Erituvchi	Namuna va erituvchi nisbati	Maydalanish darajasi (mm)	Ekstraksiya vaqti (min)	β-karotin miqdori (mkg/g)
Erituvchining ta'siri				
Geksan	1: 5	1	90	416±7,6
Aseton	1: 5	1	90	72,1±3,6
Etil spirit(96%)	1: 5	1	90	29,9±1,8

Etil asetat	1: 5	1	90	216,5±6,9
Xloroform	1: 5	1	90	213±7,2
Namuna va erituvchi nisbatining ta'siri				
Geksan	1:1	1	90	126,7±3,4
Geksan	1:10	1	90	401,5±6,8
Geksan	1:15	1	90	329,5±5,4
Maydalanish darajasining ta'siri				
Geksan	1: 5	0,5	90	402,8±5,2
Geksan	1: 5	1,5	90	390,6±4,8
Geksan	1: 5	2	90	365±2,6
Geksan	1: 5	2,5	90	342,5±6,2
Ekstraksiya vaqtining ta'siri				
Geksan	1: 5	1	30	269,2±4,4
Geksan	1: 5	1	60	330,4±5,2
Geksan	1: 5	1	90	416±7,6
Geksan	1: 5	1	120	391,5±5,1

Yuqoridagi natijaga asoslangan holda biz mamlakatimiz hududida yetishtirilgan za'faronning gultumshuqchalari tarkibidagi β -karotin miqdorini boshqa hududlardagi β -karotin miqdori bilan taqqoslash imkoniga ega bo'lamiz.

3-jadval.

Za'faron gultumshuqchalarining turli ekoformalarida aniqlangan ba'zi karotinoidlar miqdori

Hududlar	Krosin mkg/g	Krosetin mkg/g	β -karotin mkg/g	Zeaksantin mkg/g
Turkiya	8201,7	186,6	512,9	252,0
Eron	11141,6	1054,7	343,4	61,2

Bir qator olimlar qandli diabetda KFSH larning haddan tashqari ko'payishini hisobga olgan holda, bemorlar ratsioniga β -karotin tutgan mahsulotlar qo'shilishi ularning KFSH larning zararli ta'sirlariga munosib qarshi turishi mumkinligini aniqladilar.

Yurtimizda yetishtirilgan za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi β -karotin miqdorini spektrofotometriya usulida taxlil qilish natijalariga ko'ra, mazkur za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi β -karotin miqdori Eron za'faronidagiga nisbatan 1,21 marta ko'proq ekani ma'lum bo'ldi. Shuningdek, qandli diabetda foydali ekani ma'lum bo'lgan yer nokidan 41,6 marta, steviya barglaridan qariyb 7,5 marta ziyod ekanini anglash mumkin.

Za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi fenol birikmalari miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida amalga oshirildi hamda natijalar qayta ishlanib 4-jadvalda keltirildi.

Za'faron gultumshuqchalari ekstrakti tarkibidagi ayrim flavoniodlar miqdorining yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida aniqlash natijalari

Nomlari	Ushlanish vaqti, min.	Konsentratsiyasi, mg/ml	Miqdori, mg/g
Gall kislota	2,493	0,04	1,6
Rutin	3,635	0,014	0,56
Apigenin	10,178	0,001	0,04
Kemferol	10,508	0,01	0,4

Bunda za'faron gultumshuqchalari tarkibidagi fenol birikmalari miqdori tekshirilganda gall kislota 1,6 mg/g, rutin 0,56 mg/g, apigenin 0,04mg/g va kemferol 0,4 mg/g miqdorda ekanligi aniqlandi.

Gall kislota, rutin, kversetin, apigenin va kemferol fenolli va flavonoid birikmalar bo'lib adabiyotlarda ushbu birikmalar va ularning hosilalarini oziq-ovqat sanoatida xushbo'y moddalar va konservantlar sifatida iste'mol qilishdan tashqari, ushbu fitokimyoviy moddalarning antioksidant, mikroblarga qarshi, yallig'lanishga qarshi, saratonga qarshi, qandli diabetga qarshi, kardioprotektiv, gastroprotektiv va neyroprotektiv ta'siri kabi biologik va farmakologik faolligi haqida turli xil ilmiy dalillar mavjud.

Antioksidantlar kislorodning faol shakllariga qarshi tananing himoya tizimida juda muhim rol o'ynaydigan, vitaminlar, minerallar, karotinoidlar va polifenollar kabi moddalardir. Antioksidantlar saraton, yurak-qon tomir kasalliklari, semizlik, 2-toifa qandli diabet, gipertenziya va katarakt kabi oksidlovchi stress tufayli kelib chiqadigan kasalliklarning rivojlanishidan eng yaxshi himoyani ta'minlashi aniqlangan.

Adabiyot ma'lumotlarida za'faron gultumshuqchalari yaxshi antioksidant sifatida ifodalangan. Za'faron asosida olinadigan oziq-ovqat qo'shilmasining yanada yaxshiroq antioksidant faollikka ega bo'lishiga erishish uchun unga zig'ir urug'ini qo'shishga qaror qildik.

Ushbu tadqiqotimizda za'faron gultumshuqchalari asosida tayyorlangan bir nechta na'munalarning antioksidant faolliklarini aniqladik. Buning uchun za'faron gultumshuqchalari va zig'irning maydalangan urug'ining turli massa nisbatlaridagi aralashmasidan iborat ZF-1, ZF-2, ZF-3, ZF-4 shartli nomlar berilgan na'munalar tayyorladik.


Na'munalarning tarkibi va antioksidant faolliklari

Na'munaning shartli nomi	Za'faron gultumshuqchalari	Zig'ir urug'i	Antioksidant faollik
ZF-1	100%	-	22,05%
ZF-2	3	1	21,7%
ZF-3	1	1	22,01%
ZF-4	1	3	23,24%

ZF-4 na'munasining boshqa na'munalarga nisbatan yuqori antioksidant faollikka ega ekanligi tufayli uni oziq-ovqat qo'shilmasi tayyorlash uchun eng maqbul na'muna sifatida tanlab oldik va uni "ASQAND" deb nomladik.

Antiradikal faollik qandli diabet, yallig'lanish va yurak-qon tomir kasalliklari etiologiyasiga hissa qo'shuvchi erkin radikalakallar paydo bo'lishini turli xil ta'sir mexanizmlar orqali bartaraf etadi. Shu sababli "ASQAND" oziq-ovqat qo'shilmasining antiradikal faolligi aniqlandi. Buning uchun barqaror erkin radikal bo'lgan 2,2-Difenil-1-pikrilgidrazilning vodorod donori bo'la oladigan dorivor moddalar, ekstraktlar yoki boshqa biologik manbalar ta'sirida qaytarilishiga asoslangan DFPG tahlil usuli qo'llanildi.

"ASQAND" oziq-ovqat qo'shilmasi ta'sirida DFPG eritmasining optik zichligi keskin pasayishi kuzatildi, bu uning yuqori ARF xususiyatidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. "ASQAND" oziq-ovqat qo'shilmasi ta'sirida DFPG optik zichligining vaqt oralig'ida kamayishi

Yuqorida keltirilgan natijalar "ASQAND" oziq-ovqat qo'shilmasining antiradikal faolligi 88,3% ekanini ifodalamoqda.

Zaytun moyi asosida shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasi ishlab chiqish maqsadida zaytun moyi va shifobaxshlik xossasi yuqori bo'lgan zig'ir moyini o'zaro turli nisbatlarda aralashtirib tayyorlangan namunalarning 50 mkl/ml konsentratsiyali etil atsetatdagi eritmalarining antiradikal faolliklarini aniqladik va o'zaro taqqosladik.

6- jadval.

Zaytun va zig'ir moylarining turli nisbatlardagi aralashmalari tarkibi va antiradikal faolliklari

Na'munaning shartli nomi	Na'munalar tarkibi(%)		Antiradikal faolligi (%)
	Zaytun moyi	Zig'ir moyi	
ZN-1	100	-	33,64±2,2
ZN-2	75	25	40±1,8
ZN-3	50	50	34,45±2.6
ZN-4	25	75	32,74±1,6

Yuqorida keltirilgan 6-jadvaldagi ma'lumotlarga asoslanib na'munalar orasida zaytun va zig'irning 3:1 hajmiy nisbatdagi aralashmasi bo'lgan ZN-2 nomli na'muna eng yuqori antiradikal faollikka ega ekanini anglash mumkin. Shuning uchun ham olingan ushbu ZN-2 na'munasini oziq-ovqat qo'shilmasi uchun maqbul na'muna sifatida tanlab olindi va "ASUK" deb nom berildi.

Oziq-ovqat qo'shilmalarining antiradikal faolliklarini aniqlash bo'yicha olib borayotgan tadqiqotimizni davom ettirib, zaytun moyi asosida tayyorlangan "ASUK" shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasining antiradikal faolligi 2,2-difenil-1-pikrilgidrazil (DFPG) erkin radikal inaktivatsiyasi usuli bilan aniqlandi.

Bunda "ASUK" shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasining konsentratsiyasi ortishining antiradikallikka ta'sirini ko'rib chiqdik. Shu maqsadda 25 mkl/ml, 50 mkl/ml, 75 mkl/ml va 100 mkl/ml konsentratsiyali etil atsetatdagi eritmalar tekshirish uchun olindi. Quyidagi jadvalda "ASUK" shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasining turli konsentratsiyali eritmalarining DFPG eritmasi optik zichligini kamaytirish ko'rsatkichlari na'munalarning DFPG molekulalarini ingibirlash qobiliyatiga bog'liqligi raqamlarda (%) ifodalangan (7-jadval).

7-jadval.

DFPG eritmasi ingibirlanish darajasiga turli konsentratsiyali "ASUK" na'munalarining ta'siri (n=5)

Na'muna	Ingibirlash, % (10 chi minut holatiga)			
	25 mkl/ml	50 mkl/ml	75 mkl/ml	100 mkl/ml
"ASUK" oziq-ovqat qo'shilmasi	28±2,1	40±1,8	48±1,4	57±2,4

"ASUK" shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasi konsentratsiyasi ortgan sari uning antiradikal faolligi ham ortib borishini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotimizning bu qismida "ASQAND" shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasining organizmning gipoksiya sharoitida kislorod iste'moliga ta'sirini o'rgandik.

Olingan natijadan hayvonlarda standart almashinuvi namunalari ta'sirida pasayishi va bu jarayon namunalarning miqdorini ortib borishiga mos holda kuchayishi ma'lum bo'ldi (8-jadval).

Demak, "ASQAND" shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasi yurakning qisqarish ritmiga, qonning daqiqalik hajmiga va qonning kislorod sig'imiga bog'liq kislorodning organizmga tashilishini sezilarli darajada pasaytiradi. Faol metabolik xolatdan passiv metabolik holatga o'tkazadi. Bundan, "ASQAND" shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasi organizm darajasidagi ta'siri energiya va ozuqa moddalarni sarflanishini pasaytirishi, ya'ni kislorod va substratlarni tejimli sarflash tizimiga o'tkazish orqali namoyon bo'ladi.

“ASQAND” shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmasining kislorod iste‘moliga ta‘siri
($M \pm m$; $n = 6$).


Na‘munalarni miqdori, mg/kg	Kalamush	
	Kislorod istemoli, mM O ₂ /minkg	
0	1372±140	100
16	1165±136*	84,9
32	1040±130***	75,8
48	915±124****	66,7
64	801±82****	58,4
80	540±67****	39,4

Eslatma: bu yerda ishonchlik darajasi quyidagicha belgilangan:

* $P < 0,05$; ** $P < 0,02$; *** $P < 0,01$; **** $P < 0,001$.

2-toifa qandli diabet rivojlanishida lipidlarning peroksidli oksodlanishining yuqori biomarkerlari oksidlovchi stressning patologik rolini ta‘kidlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Quyida *in vitro* tajribalarda “ASQAND” shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmasi ta‘sirida Fe²⁺/askorbat bilan chaqirilgan mitoxondriyalar bo‘kishiga ingibirlovchi ta‘siri keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Fe²⁺/askorbat bilan chaqirilgan mitoxondriyalardagi lipidlarning peroksidli oksidlanish jarayoniga “ASQAND” shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmasining ta‘siri.

Mitoxondriya membranalaridagi lipidlarning peroksidli oksidlanish jarayonlarida membranadagi ion kanallar buzilib, turli ionlar va erkin radikallarni ichkariga kirishi va bo‘kish hodisasi kuzatiladi. “ASQAND” shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmasining 2, 4, 6, 8, 10 mkg/l konsentratsiyali eritmalari ta‘sirida mitoxondriyaning bo‘kish hodisasi tegishli 36, 43, 60, 68, 80% ga kamayishi aniqlandi.

O‘tkir zaharlash parametrlarini aniqlash uchun Litchild va Uilkokson usulidan foydalanildi. Ozuqa 200, 400, 800, 900 va 1000 mg/kg dozalarda 4 % li eritma shaklida og‘iz orqali kiritildi. Tajribaning dastlabki kunida laboratoriya sharoitida

hayvonlarning holati har soatda kuzatib borildi. Bunda ularning funksional holatining ko'rsatkichlari sifatida tajriba davomida tirik qolish darajasi, umumiy holati, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan titrash va o'lim holati ko'rib chiqiladi.

“ASQAND” shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasining o'tkir zaharlash xususiyatini o'rganish natijalari ushbu preparatning IV sinf kam zaharli modda birikmalariga tegishliligi va bir marotaba og'iz orqali kiritilgandagi o'rtacha o'lim dozasi (LD₅₀) 870 mg/kg miqdorda ekanligi aniqlandi.

9- jadval

“ASQAND” shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasining o'tkir zaharlash ko'rsatkichlari

Hayvon turi	Jinsi	Dozalar mg/kg	Guruhdagi o'lgan hayvonlar soni	LD ₁₆	LD ₅₀ ishonch oralig'i bilan	LD ₈₄
Sichqon	erkak	200	6/0	≥700mg/kg	≥870mg/kg	≥1100 mg/kg
		400	6/0			
		800	6/1			
		900	6/3			
		1000	6/5			

Navbatdagi tadqiqotda “ASQAND” oziq-ovqat qo'shilmasining qandli diabetga ta'sirini QD modellarida tekshirildi va quyidagi natijalarga erishildi.

10-jadval

Eksperimental diabet modeli kalamushlarda glyukoza miqdorining o'zgarishi (mmol/l)

№	Guruhlar	n	Kunlar			
			1	15	21	28
1	Intakt guruh	4	4.5±0.45	4.8±0.54	4.8±0.23	4.8±0.52
2	Diabet guruh	4	4.7±0.82	12.9±0.87	13.3±0.57*	13.5±0.74
3	Diabet+diabeton	4	5.0±0.51	12.3±0.95	10.9±0.82	7.0±0.97
4	Diabet+“ASQAND”	4	4.7±0.68	12.7±0.95	10.7±0.45*	6.9±0.88

Model chaqirilishdan oldin (1-kuni), Model chaqirilgandan so'ng (15-kuni), Preparatlar berilgandan so'ng (21-va 28- kunlari)

Diabet guruhida qondagi qand miqdori 15,21 hamda 28 kunlarda muttasil ortib borgani, Diabet+preparat guruhlarida esa pasayganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, bu holat diabet+“ASQAND” guruhida yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Diabet+“ASQAND” guruhi kalamushlari qonidagi qand miqdori 28 – kunga kelib Diabet guruhiga nisbat deyarli ikki barobar pastroq ko'rsatkichni, Diabet+diabeton guruhiga nisbatan 1,5% kamroq qiymatni ko'rsatdi.

“ASQAND” shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasidan davomli tarzda foydalanish orqali kerakli natijalarga erishish mumkinligi tajribalarda o'z aksini topdi.

Tadqiqotlarning ushbu bosqichi “ASUK” oziq-ovqat qo'shilmasining yallig'lanishning har xil komponentlariga ta'sirini o'rganishdan iborat bo'ldi.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, yallig'lanish holatida “ASUK” oziq-ovqat qo'shilmasining antiiekssudativ ta'sirini tadqiq qilish, ushbu preparatning

o'rganilgan barcha dozalarda glitserindan samaraliroq ekanligini ko'rsatdi (11-jadval).

11-jadval

“ASUK” oziq-ovqat qo'shilmalarning yallig'lanishga ta'siri ($M \pm m$; $n=6$)

Guruhlar	Doza, mg/kg	3 soatdan keyin		24 soatdan keyin	
		Shishning kattaligi, %	AEF, %	Shishning kattaligi, %	AEF, %
Nazorat	-	93,8±4,60	-	50,0±6,5	-
Glitserin	0,25 ml	65,1±17,0	31,0	22,4±2,47***	55,2
	0,5 ml	53,3±14,3**	43,2	17,4±3,75**	65,2
“ASUK”	0,25 ml	44,1±6,80***	53,0	20,5±6,82	59,0
	0,5 ml	26,3±4,07**	72,0	12,8±2,75***	74,4

Izoh: * - $p < 0,05$, ** - $p < 0,01$, *** - $p < 0,001$ nazoratga nisbatan.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichi “ASUK” oziq-ovqat qo'shilmasi va glitserinning yallig'lanishga qarshi faolliklarini eksudatsiya va proliferatsiyaga qarshi ta'sirlarini baholash imkoniyatlarini beruvchi «paxta granulyoma»si modelida o'rganishdan iborat bo'ldi.

12-jadval

“ASUK” oziq-ovqat qo'shilmasi va glitserinning yallig'lanishga qarshi faolligini kalamushlarda «paxta granulyoma»si modelida o'rganish ($M \pm m$; $n=6$)

Guruhlar	Doza (mg/kg)	EM, mg	EB, %	GM, mg	PB, %
Nazorat	-	346,0±29,4	-	86,5±9,70	-
Glitserin	0,25	250,0±35,4	27,7	62,2±6,98	28,1
	0,5	243,3±23,3	29,7	60,0±5,96	30,6
“ASUK”	0,25	228,0±22,4	34,1	55,8±7,4	35,5
	0,5	206,9±21,3	40,2	53,8±6,3	37,8

Shunday qilib, “ASUK” oziq-ovqat qo'shilmalarning ta'sirini «paxta granulyoma»si modelida tadqiq qilish, yaqqol namoyon bo'lgan proliferativ jarayonlar muhitida uning glitseringa nisbatan o'rganilgan barcha dozalarda samarali ekanligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning **“Za'faron gultumshuqchalari va zaytun moyining kimyoviy tarkibini fizik – kimyoviy usullar yordamida aniqlash hamda biologik faolliklarini eksperimental o'rganish (eksperimental qism)”** deb nomlangan uchinchi bobida za'faron gul tumshuqchalari tarkibidagi makro va mikro-elementlar, β -karotin, ayrim flavonoidlar miqdorini turli usullar yordamida aniqlash, za'faron asosida tayyorlangan na'munalarning antioksidantlik, antiradikallik faolliklarini *in vitro* sharoitda aniqlash, “ASQAND” va “ASUK” oziq-ovqat qo'shilmalarning turli biologik xususiyatlarini *in vivo* sharoitda aniqlash uslublari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Zaytun va za'faron o'simliklaridan shifobaxsh oziq – ovqat qo'shilmalari ishlab chiqarish va ularni kimyoviy tarkibi asosida sinflash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida za'faron gultumshuqchalari hamda zaytun moyi asosida oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish va sanoat miqyosida ishlab chiqarishni

yo'lga qo'yish hamda oziq-ovqat qo'shilmalarini kimyoviy tarkibiga ko'ra sinflash va tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha tovar kodini ishlab chiqish muammolari haqida so'z boradi.

“ASQAND” oziq-ovqat qo'shilmasini ishlab chiqarish jarayoni uchun amalga oshiriladigan sarf-xarajat miqdori hisoblab chiqildi.

13- jadval.

“ASQAND” oziq-ovqat qo'shilmasining tarkibi va tannarxi haqida ma'lumot

Xom ashyo maxsulotlari			Ishlab chiqarish xarajatlari			Jami
Za'faron	Zig'ir	Ko'k choy	Paketchalar	Quti va gofra	Ishchi kuchi va boshqalar	
0,1 g	0,3 g	49,6 g	25 dona	1 dona	1 dona quti uchun	
Narxi (so'mda)						
4500	40	1390	200	540	460	7130

“ASQAND” oziq-ovqat qo'shilmasini Andijon viloyati Oltinko'l tumanida faoliyat olib borayotgan “ZAYTUN MED GROUP” MCHJ korxonasi seriali ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda.

“ASUK” oziq-ovqat qo'shilmasining tannarxi hisoblab chiqildi. Quyidagi jadvalda ushbu ma'lumotlar keltirilgan.

14- jadval.

“ASUK” oziq-ovqat qo'shilmasining tarkibi va tannarxi haqida ma'lumot

Xom ashyo maxsulotlari		Ishlab chiqarish xarajatlari			Jami
Zaytun moyi	Zig'ir moyi	Flakon (50 ml)	Quti, yorliq va gofra	Ishchi kuchi va boshqalar	
37,5 ml	12,5 ml	1 dona	1 dona	1 dona quti uchun	
Narxi (so'mda)					
4350	1850	500	540	460	7700

15- jadval.

“ASUK” oziq-ovqat qo'shilmasi ustida olib borilgan sanitariya gigiena tekshiruvlari natijalari

No	Sinov korsatkichlari	Me'yoriy hujjat	NTX bo'yicha (mg/kg)	Xaqiqiy qiymat (mg/kg)	Ko'rsatkic hning mosligi
1	Rux	DSt 26934-86	5,0	0,66	Mos keladi
2	Kadmiy	DSt 26933-86	0,05	0,00	Mos keladi
3	Qo'rg'oshin	DSt 26932-86	0,1	0,00	Mos keladi
4	Mis	DSt 26931-86	0,5	0,028	Mos keladi
5	Mishyak	DSt 26930-86	0,1	0,00	Mos keladi
6	Simob	DSt 26927-86	0,03	0,00	Mos keladi
7	Temir	DSt 26928-86	5,0	0,73	Mos keladi

8	Kislotalilik soni	DSt 21933-2012	0,4-0,5 mg KOH/g	0,44 mg KOH/g	Mos keladi
9	Peroksid soni	DSt 26593-85	10 mmol akt. Kislorod/kg	8,15 mmol akt kislorod/kg	Mos keladi

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga tayanib aytish mumkinki, "ASUK" shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasi barcha sanitariya gigiena talablariga to'liq javob beradi.

"ASUK" oziq-ovqat qo'shilmasini Andijon viloyati Oltinko'l tumanida faoliyat olib borayotgan "ZAYTUN MED GROUP" MCHJ korxonasi seriali ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda.

"ASQAND" oziq-ovqat qo'shilmasini Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasining aynan 121230 - "dorivor o'simliklardan, yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan oziq-ovqat qo'shilmalari" subpozitsiyasi bo'yicha sinflab, unga "tarkibida krosetin, krosin, beta-karotin, safranal saqllovchi dorivor o'simliklar yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari" uchun – 1212 301503 tovar kod raqamini tavsiya etdik.

16- jadval.

"ASQAND" shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasiga TIF TN bo'yicha tavsiya qilingan tovar kod raqami

TIF TN kodi	Pozitsiyalarni nomlanishi
121230	- dorivor o'simliklardan, yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan oziq – ovqat qo'shilmalari;
121230150	- boshqalar;
1212301503	- tarkibida za'faron gultumshuqchalari va zig'ir urg'i bo'lgan "ASQAND" oziq-ovqat qo'shilmasi;

"ASUK" oziq-ovqat qo'shilmasini esa, 2106 - boshqa joyda ko'rsatilmagan yoki kiritilmagan oziq-ovqat mahsulotlari; pozitsiyasining 210690 – boshqalar; suppozitsiyasi bo'yicha sinflab, unga "tarkibida olein kislotasi, palmitin kislotasi, linolein kislotasi va ularning efirlari, tirozol hamda gidroksitirozol saqllovchi dorivor o'simliklar yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari" uchun – 2106 90 980 6 tovar kod raqamini tavsiya etdik.

17- jadval.

"ASUK" shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasiga TIF TN bo'yicha tavsiya qilingan tovar kod raqami

TIF TN kodi	Pozitsiyalarni nomlanishi
2106	- boshqa joyda ko'rsatilmagan yoki kiritilmagan oziq-ovqat mahsulotlari;
2106 90	- boshqalar;
210690980	- boshqalar;
210690980 6	- tarkibida zaytun va zig'ir moylari bo'lgan "ASUK" oziq-ovqat qo'shilmasi;

Biz tomonimizdan “ASUK” oziq-ovqat qo‘shilmasi uchun taklif etilgan 2106909806 tovar kod raqami O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi tomonidan qabul qilindi va tegishli ma’lumotnoma berildi (O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasining 2024 yil 20-iyundagi №17/05-24-1187 sonli ma’lumotnoma).

XULOSA

“Zaytun va za’faron o‘simligi asosida shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmalari olish va ularni sinflash” mavzusidagi dissertatsiya ishi doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi umumiy xulosalarga keldik:

1. Respublikamizning Surxandaryo viloyatida yetishtirilgan za’faron gultumshuqchalari tarkibidagi makro- va mikrobiogen elementlar, flavonoid birikmalar hamda β -karotin miqdori tekshirildi.

2. Zaytun moyi asosida “ASUK” shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmasi, za’faron gultumshuqchalari asosida esa “ASQAND” shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmasi yaratildi.

3. Olingan oziq-ovqat qo‘shilmalarining antiradikal faolligini barqaror radikal 2,2-difenil-1-pikrilgidrazil (DFPG) ga nisbatan miqdoriy baholash natijalari ularning yuqori antiradikal xossaga ega ekanligini ko‘rsatdi.

4. Zaytun moyi asosida olingan “ASUK” oziq-ovqat qo‘shilmasining yallig‘lanishga qarshi faolligini “Karragenin shishi” hamda antioksidant xususiyati “Paxta granulyomasi” usulida *in vivo* sharoitda tekshirilganda uning bu xususiyatlari ayrim sintetik vositalarga nisbatan yuqori ekanligi isbotlandi.

5. Za’faron asosida tayyorlangan “ASQAND” oziq-ovqat qo‘shilmasining jigar va muskul to‘qimalaridagi glikogen va qondagi glikozirlangan gemoglobin hamda erkin gemoglobin miqdoriga ta’siri *in vivo* sharoitda baholandi.

6. “ASQAND” oziq-ovqat qo‘shilmasining qondagi qand miqdoriga ta’siri *in vivo* sharoitda laboratoriya oq kalamushlarida o‘rganilishi natijasida uning gipoglikemik xususiyati sintetik dori vositasi “Diabeton”ga nisbatan samaraliroq ekanligi isbotlandi.

7. “ASQAND” oziq-ovqat qo‘shilmasini Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasining 121230 - “dorivor o‘simliklardan, yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalari” subpozitsiyasi bo‘yicha sinflab, unga “tarkibida krosetin, krosin, beta-karotin, safranal saqllovchi dorivor o‘simliklar yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari” uchun – 1212 301503 tovar kod raqamini tavsiya etildi.

8. “ASUK” oziq-ovqat qo‘shilmasini 2106 - boshqa joyda ko‘rsatilmagan yoki kiritilmagan oziq-ovqat mahsulotlari; pozitsiyasining 210690 – boshqalar; suppozitsiyasi bo‘yicha sinflab, unga “tarkibida olein kislota, palmitin kislota, linolein kislota va ularning efirlari, tirozol hamda gidroksitirozol saqllovchi dorivor o‘simliklar yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari” uchun – 2106 90 980 6 tovar kod raqamini tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05 ПРИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

УБАЙДУЛЛАЕВ КОМИЛЖОН ТУРСУНБОЕВИЧ

**ПОЛУЧЕНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ
ПИЩЕВЫХ ДОБАВОК НА ОСНОВЕ РАСТЕНИЙ ОЛИВЫ И ШАФРАНА**

**02.00.09 – Химия товаров
14.00.41 – Народная медицина**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан - 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.4.PhD/K572.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

Автореферат диссертации размещена на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте научного совета (www.adu.uz) и в информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Аскарлов Иброхим Рахмонович
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты: Исаев Юсуфжон Тожимаматович
доктор химических наук, профессор

Дехканов Рахматилла Султанович
кандидат химических наук, доцент


Ведущая организация: Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится «07» 09 2024 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 при Андижанском государственном университете. (Адрес: 170100, г. Андижан, улица Университетская, 129. Тел.: (99874)223 88 30, факс: (99874) 223 84 33).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (зарегистрирована за №). (Адрес: г. Андижан, улица Университетская, 129. Тел.: (99874)223 88 30, факс: (99874) 223 84 33) e-mail: agsu_info@edu.uz

Автореферат диссертации разослан «24» 08 2024 года.
(протокол реестра рассылки № 39 от «24» 08 2024 года.)




Ш.Х. Абдуллоев
Заместитель председателя
Ученого совета по присуждению
ученых степеней, д.х.н., профессор.

М.М. Муминжонов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.х.н., доцент.


М.М. Хожиматов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Одним из важнейших актуальных вопросов в мире является определение химического состава лекарственных растений, разработка на их основе полезных для человеческого организма, безвредных натуральных продуктов питания. В связи с этим особое значение имеет разработка натуральных, безвредных и экологически чистых пищевых добавок на основе частей лекарственных растений различных вегетационных периодов, хранящих биологически активные соединения, макро- и микроэлементы, которые являются вспомогательными для синтетических лекарственных средств, а также их применение в народной медицине.

В мире проводится ряд исследований в области создания пищевых добавок, изготовленных из природных биологически активных соединений, полученных из лекарственных трав, которые обладают профилактическими и лечебными свойствами при воспалениях и диабете. В связи с этим особое внимание уделяется разработке биологически активных пищевых добавок, заменяющих некоторые синтетические средства на основе лекарственных растений, которые лечат или предотвращают воспаление и сахарный диабет. По этой причине особое внимание уделяется созданию натуральных пищевых добавок, обладающих свойствами лечения и профилактики воспалений и диабета, с использованием оливкового масла и шафрана, которые положительно влияют на воспаление, снижают уровень сахара в крови; определяется их химический состав, а также разрабатываются для них новые товарные коды в соответствии с ТН ВЭД.

Вместе с повышением иммунитета человеческого организма в нашей республике достигнуты определённые успехи по разработке и внедрению в практику натуральных пищевых добавок, обладающих свойствами профилактики и лечения заболеваний. В стратегии развития Нового Узбекистана¹ определены задачи, реализация которых имеет важное значение для «Осуществления программы развития пищевой промышленности». Исходя из этих задач, создание на основе оливок и шафрана безвредных, натуральных биологически активных пищевых добавок, повышающих иммунитет организма, содержащих в своем составе противовоспалительные вещества и соединения, предотвращающие сахарный диабет, изучение их химического состава, структуры, свойств, а также разработка и внедрение в практику товарных кодексов по ТН ВЭД приобретает важное научно-практическое значение.

Данная диссертация в определенной степени послужит обеспечению выполнения задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-251 «О мерах по организации широкого использования лекарственных

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года.

растений в выращивании и переработке в культурном виде и лечении» от 20 мая 2022 года, № ПП-3968 «О мерах по упорядочению отрасли народной медицины в Республике Узбекистан» от 12 октября 2018 года и других нормативных правовых актах.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики - VII. «Химические технологии и нанотехнологии».

